



Cognitive-semantic analysis of humor samples in English

Farangiz NOMOZOVA¹

Termez State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2025

Received in revised form

15 September 2025

Accepted 25 September 2025

Available online

15 October 2025

Keywords:

Humor,
cognitive-semantic
analysis,
understanding humor,
lexical transposition,
semantics,
conceptual system.

ABSTRACT

In recent years, linguistic research has actively developed toward exploring the interrelation between human cognition and language. In particular, cognitive linguistics studies the processes of meaning formation in close connection with human cognitive activity, conceptual systems, and world knowledge. Within this approach, cognitive-semantic analysis interprets linguistic units not only as formal structures but also as means of expressing conceptual categories that exist in the human mind.

The main goal of the cognitive-semantic approach is to identify the mechanisms of meaning formation — to analyze how the meanings of linguistic signs are created and which cognitive processes underlie their manifestation in speech. This approach views language as a system of knowledge and emphasizes the role of cognitive mechanisms such as imagery, association, analogy, metaphor, and categorization in meaning formation.

English, with its rich traditions of humor, broad semantic potential, and developed metaphorical system, provides suitable material for cognitive analysis. In English humor, phenomena such as wordplay, metaphor, metonymy, semantic ambiguity, and contextual shift are widely used. Studied within a cognitive-semantic framework, these elements reveal the semantic and conceptual mechanisms underlying humor and laughter.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss8/S-pp331-338>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ PhD student, Termez State University.

Ingliz tilidagi yumor namunalarning kognitiv-semantik tahlili

Kalit so'zlar:

Yumor,
kognitiv-semantik,
yumorni tushunish,
leksik transpozitsiya,
leksik transpozitsiya.

ANNOTATSIYA

So'nggi yillarda tilshunoslikda inson tafakkuri va til o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur tahlil qilishga qaratilgan ilmiy yo'nalishlar faol rivojlanmoqda. Xususan, kognitiv tilshunoslik tildagi ma'no hosil bo'lish jarayonlarini insonning bilish faoliyati, konseptual tizimi va dunyo haqidagi bilimlari bilan uzviy aloqada o'rganishni maqsad qiladi. Ushbu yondashuv doirasida shakllangan kognitiv-semantik tahlil til birliklarini faqat lingvistik struktura sifatida emas, balki inson ongidagi konseptual kategoriyalarni ifodalovchi vosita sifatida talqin etadi.

Kognitiv-semantik yondashuvning asosiy maqsadi — ma'no hosil bo'lish mexanizmlarini aniqlash, ya'ni til belgilarining ma'nosi qanday shakllanishi, qanday kognitiv jarayonlar orqali nutq faoliyatida namoyon bo'lishini tahlil qilishdan iboratdir. Bu yondashuv tilni bilimlar tizimi sifatida ko'radi hamda ma'no hosil bo'lish jarayonida tasavvur, assotsiatsiya, analogiya, metafora va kategoriyalash kabi kognitiv mexanizmlarning rolini alohida ta'kidlaydi.

Ingliz tili o'zining boy yumoristik an'analari, keng semantik imkoniyatlari va metaforik tizimi bilan kognitiv tahlil uchun qulay materialdir. Ingliz tilidagi yumor namunalarida so'z o'yinlari, metafora, metonimiya, semantik noaniqlik, kontekstual siljish kabi hodisalar keng qo'llanadi. Ushbu elementlar kognitiv-semantik tahlil doirasida o'rganilganda, kulgi hosil bo'lishining asosida yotgan semantik va konseptual mexanizmlar aniqlanadi.

Когнитивно-семантический анализ образов английского юмора

Ключевые слова:

Юмор,
когнитивно-
семантический анализ,
понимание юмора,
лексическая
транспозиция,
семантика,
концептуальная система.

АННОТАЦИЯ

В последние годы в языкознании активно развиваются научные направления, направленные на глубокий анализ взаимосвязи между человеческим мышлением и языком. В частности, когнитивная лингвистика стремится изучать процессы формирования смысла в языке в тесной связи с познавательной деятельностью человека, его концептуальной системой и знаниями о мире. В рамках этого подхода когнитивно-семантический анализ рассматривает языковые единицы не только как лингвистические структуры, но и как средства выражения концептуальных категорий, существующих в сознании человека.

Основная цель когнитивно-семантического подхода — выявить механизмы формирования смысла, то есть проанализировать, как формируется значение языковых

знаков и какие когнитивные процессы участвуют в его проявлении в речевой деятельности. Этот подход рассматривает язык как систему знаний и подчеркивает особую роль таких когнитивных механизмов, как образность, ассоциация, аналогия, метафора и категоризация в процессе формирования смысла.

Английский язык, обладая богатой юмористической традицией, широкими семантическими возможностями и развитой метафорической системой, представляет собой удобный материал для когнитивного анализа. В английском юморе широко используются такие явления, как игра слов, метафора, метонимия, семантическая неоднозначность и контекстуальные смещения. Изучение этих элементов в рамках когнитивно-семантического анализа позволяет выявить семантические и концептуальные механизмы, лежащие в основе возникновения юмора и смеха.

Kognitiv-semantik xususiyatlar:

Yumorning aniq tabiiy chegaralari yo'q, chunki uning asosida yotuvchi hodisalar bir-birini qisman qoplaydi va o'zaro ta'sirlashadi[1]. "Yumor" so'zi biror real narsaga emas, balki har bir insonga xos bo'lgan fikrlashning "tarmoqli" modeliga ishora qiladi. Bu model boshqalarning shunga o'xshash modellardan farq qiladi. Har kim bu so'zni turlicha tushunadi va turlicha ishlatadi – huddi har kim turli hazillarga kulgani kabi. Bu hol yumorni o'rganishga arziyas qilib qo'ymaydi, biroq nimani va qaysi nuqtai nazardan o'rganish zarurligini aniq belgilab olish kerak.

Yumor – noaniqlik natijasi sifatida:

Transformatsion generativ grammatika doirasidagi tilning asosiy muammolaridan biri – bu **noaniqlik** tabiatidir. Yumor va hazillar ikkilamchi semiotik usul sifatida aynan tilning noaniqligiga asoslanadi. "Yumor tili ikki ma'nolilik ichida raqsga tushadi"[2].

Ch. Xokket antik an'anadagi **yumor in rebus** (hodisalarda, voqealarda yuzaga keladigan kulgi) va **yumor in verbis** (so'zlarda yuzaga keladigan kulgi) farqlanishiga tayangan holda, barcha hazillarni **prozaik** va **poetik** deb ajratadi[3].

- **Prozaik hazillar** madaniy vaziyatlar, odamlar o'zaro munosabatlari, ijtimoiy institutlarga asoslanadi.

- **Poetik hazillar** esa til tuzilishidagi tasodifiyliklar bilan bog'liq (ya'ni, grammatik shakllar va ularning noto'g'ri ishlatilishiga asoslangan kulgi).

Bunday yumorning xususiy ko'rinishlari metateza va **spunerizm**ga asoslangan hodisalardir.

Spunerizm – ikki so'zning bosh tovushlari yoki boshqa qismlarining tasodifiy joy almashtirishi. Bu hodisa nomini Oksford professori, ruhoni **Spuner** nomidan olgan. U tez-tez shunday xatoliklarga yo'l qo'ygan va bu tinglovchilarda kulgi uyg'otgan.

Masalan:

- *Let me sew you to your sheet! / Let me show you to your seat!*
(Keling, sizni choyshabingizga tikib qo'yay! / Keling, sizni o'rningizga olib borib qo'yay!)

- *You have hissed the mystery lesson / You have missed the history lesson*
(Siz sirli darsni "shivirlagansiz" / Siz tarix darsini o'tkazib yuborgansiz)

- *I'm going to fight the liar because it's crowing gold / light the fire, growing cold.*
(Men yolg'onchini urishga ketayapman, chunki u oltin qichqiryapti / olovni yoq, soviyapti.)
Shuningdek, hayotiy voqeaga asoslangan kulgili misollar:

"Shaharda ishlayotgan paytim, ba'zan ukam bilan yaqin restoranda tushlik qilardim. Bir kuni u bilan tushlik qilib bo'lib, yig'ilishga kech qolganimni bildim. Tezda ofisga qaytdim. Xonaga kirib, yig'ilganlarga: 'Kech qoldim, uzr – sevgilim bilan nonushta qilayapman' deb yubordim." (Life's like that).

Yumorni tushunish:

Ushbu nazariya doirasida yumorni tushunish **so'zlardagi noaniqlikni** tahlil qilishga asoslanadi, ya'ni bir nechta ma'noga ega bo'lgan so'z va so'z birikmalariga. Fonologik, morfologik va sintaktik kategoriyalar semantik noaniqlikni yuzaga keltirish imkonini beruvchi tuzilma imkoniyatlariga ega[4].

Fonologik daraja:

1. boshqa shakl, modda yoki holatga o'zgartirmoq;
2. kimnidir ma'lum bir dinni qabul qilishga undamoq.

- *The French Missionary moved westward through the North American wilderness, converting the Indians, mainly to dust.* (Fransuz missioneri Shimoliy Amerikaning yovvoyi hududlarida g'arbga qarab yo'l oldi va hindularni – asosan changga aylantirdi.)

Minimal oppozitsiyalar:

- *Sign on the gate of a nudist club in October: Clothed for the season (closed).*
(Oktyabr oyida yalang'ochlar klubining darvozasi ustidagi yozuv: "Mavsum uchun kiyintirilgan" (aslida "yopiq").

- *Those birds who can't fly south get a bit Febru-weary (February).*
(Janubga ucha olmaydigan qushlar biroz "fevral-charchoq" bo'lishadi (aslida "February").

- *The BBC received a request during its National Poetry Day to perform "Allergy in a Country Church-Yard" by Thomas Gray (Elegy).* (BBC Milliy Poeziya Kuni davomida Tomas Greyning "Qishloq cherkovi hovlisida Allergiya" asarini ijro etish haqida so'rov oldi (aslida "Elegiya").

Metateza:

- *She conks to stupor! / She stoops to conquer.* (U hushini yo'qotib yiqildi! / U yengish uchun egiladi.)

Urg'u / so'z bo'linishi

- *The men were in a bar. One said, glancing at a girl, "Say, isn't that Hortense?" The other replied: "She looks perfectly relaxed to me".* (Ikki erkak bar ichida edi. Biri qizga qarab dedi: "Hey, bu Hortense emasmi?" Ikkinchisi javob berdi: "Menga u mutlaqo xotirjam ko'rinadi" – *whore tense / Hortense o'yini*.)

- *I asked my English students to give me a list of books to read in summer. One of them listed Catch her in the Rye (Catcher in the Rye).* (Men ingliz talabalarimdan yozda o'qish uchun kitoblar ro'yxatini yozib berishni so'radim. Ulardan biri "Rjada uni ushla" kitobini yozdi (aslida "Rjoda qo'riqchi").

Morfologik tahlil

- *A woman asked me if I'd like to have my palm read and when I said yes, she painted it. (red).* (Bir ayol qo'limni "o'qib" berishni xohlaysizmi deb so'radi. Men "ha" deganimda, u uni bo'yab qo'ydi. (red / read o'yini).

Morfemik tahlil

- *What bow can no one tie? A rainbow.* (Qaysi “kamonni” hech kim bog‘lay olmaydi? Kamalak (rainbow)).

- *We set up a beehive and needed some bees. There was a man who could supply us and when I asked if we’d have to pay, he said with a grin: “Of course you will. There are no freebees.”* (Biz asalari uyasini o‘rnatdik va asalarilar kerak edi. Bir odam bizga yetkazib bera olishini aytdi. Men “pul to‘laymizmi?” deb so‘raganimda, u kulib dedi: “Albatta to‘laysiz, bepul *asalari* bo‘lmaydi.” (freebees / freebies o‘yini).

Bog‘langan morfemalardan foydalanish

- *I must say you are looking kempt, couth and sheveled today.* (Shuni aytishim kerakki, bugun siz juda “tartibli, odobli va yig‘ilgan” ko‘rinyapsiz. (aslida normal so‘zlar *unkempt, uncouth, disheveled* bo‘lishi kerak edi).

Bo‘linib ketgan morfemalar

The key to the success of Seagram family has been whiskey. (Seagram oilasining muvaffaqiyat siri – bu viski).

Sintaktik tahlil:

So‘z birikmasi tuzilishi:

- *I’d like to look up your sister some time. Mind if I borrow your speculum?* (Bir kuni singlingizni “izlab” ko‘rmoqchiman. Spekulumni qarzga olsam bo‘ladimi?)

Transformatsiya

- *I can marry anyone I please, I just haven’t found anyone I please yet.* (Men xohlagan odamimga uylanishim mumkin, faqat hali xohlagan odamimni topmadim.)

Sintaktik-morfologik omofoniya

- *Why can’t you starve in the desert? Because of the sandwiches there (sand which is).* (Nega sahroda och qolib bo‘lmaydi? Chunki u yerda “sendvichlar” bor (aslida: “sand which is” / “sendvich”).

Presuppozitsiya

How many balls of string does it take to reach the moon? One if it is long enough. (Oyga yetib borish uchun nechta ip to‘pi kerak? Agar yetarlicha uzun bo‘lsa, bittasi kifoya.)

Ushbu yondashuvning jozibadorligi shundaki, u hazil yaratishning sof lingvistik strategiyalariga asoslanadi va nisbatan ixcham mikroanalitik grammatik kategoriyalar to‘plamini beradi. Biroq, bu yondashuvning diqqat markazida yumorning o‘zi emas, balki til strukturasi turadi.

YUMOR TRANSPOZITSIYA TAHLILI

F. de Sossyurning “ma’nodorliklar” (til belgilarining o‘zaro munosabatlari) nazariyasiga asoslanib, J. B. Milner o‘zining “*Kuluvchi odam*” (*Homo Ridens*)[5] kitobida shunday deydi: differensial ma’noga, demakki, yumoristik effektga erishishning samarali usullaridan biri **transpozitsiya** yoki **o‘rin almashtirish**dir. Transpozitsiya jarayoni, uning fikricha, belgi (sign)ni tushunish va qurishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi hamda yumorga kalit vazifasini bajaradi.

Keyinchalik Milner Sossyur konsepsiyasidagi **paradigmatik qatorlar** va **sintagmatik zanjirlarni** barcha til darajalarida yumor muammosiga tadbiq qiladi. U ikki turdagi transpozitsiyani ajratadi:

1. **Paradigmatik o‘rin almashtirish** yoki **so‘z o‘yini (pun)** – bunda kutilgan qator a’zosidan biri boshqa bir a’zo bilan almashtiriladi.

2. **Sintagmatik o'rin almashtirish** – til birikmasi ichidagi elementlarning joyi o'zgaradi.

Paradigmatik o'rin almashtirish misollari:

Fonologik:

- *Diplomacy: the noble duty of lying for one's country.* (Diplomatiya: o'z mamlakating uchun yolg'on gapirishning oliy burchi.)

Morfologik

- *(Flirtation is) all attention but no intention.* (Flirt — butunlay “e'tibor”, ammo hech qanday “niyat” yo'q.)

Sintaktik

- *You can always tell a Camford man, but you cannot tell him much.* (Siz har doim Kemford odamni tanishingiz mumkin, lekin unga ko'p narsani aytolmaysiz.)

Leksik:

- *(Holland lies so low) they are only saved by being dammed (damned).* (Gollandiya shunchalik pastda joylashganki, ular faqat “to'g'onlar bilan” (dammed) saqlanadi – “la'natlanish” (damned) o'yin so'zi bilan.)

Sintagmatik o'rin almashtirish misollari:

Fonologik:

- *You've had tee many martoonies.* (Siz “juda ko'p martini” ichgansiz- aslida *too many martinis*, talaffuzdagi o'yin.)

Morfologik:

- *(Britan saylovchisi o'z okrugidagi parlament a'zosiga murojaat xatida): I assure you that you are, Sir, my obedient servant.* (Men sizni, janob, o'z itoatkor xizmatkorim sifatida tasdiqlayman. – odatiy “Men sizning itoatkor xizmatkoringizman” o'rniga so'z tartibi o'zgargan.)

Sintaktik:

- *(“Times” muxbiri valyuta kurslari bo'yicha kelishuv haqida): A giant leap for the International Monetary Fund. A small step for mankind.* (Xalqaro Valyuta Fondi uchun ulkan sakrash. Insoniyat uchun kichik qadam.)

Bu yerda qo'shimcha yumoristik effekt **alluziya** orqali yuzaga keladi: hammaning xotirasida N. Armstrongning Oyning yuzasiga chiqqan paytdagi mashhur so'zlari saqlanib qolgan: *“A small step for one man, a giant leap for mankind.”* (Bir kishi uchun kichik qadam, insoniyat uchun ulkan sakrash).

Siz bolalaringiz ulg'ayayotganini shundan bilasiz: ular endi sizdan “Qayerdan kelganmiz?” deb so'rashni bas qiladi va o'zlari “Qayerga ketayotganini” aytishni rad etadi. (Ya'ni, bolalikda ota-onadan kelib chiqish haqida qiziqadi, katta bo'lganda esa hayot yo'llarini yashirishadi). Avvallari siz bolalaringizni kechasi ertaklar bilan uxlatardingiz. Endi ular yotish vaqtida kirib kelib, sizni butun tun bedor qiladigan “ertaklar” aytib berishadi.

Leksik transpozitsiya:

- *Alimony: the bounty from the mutiny* (Aliment – “isyondan olingan in'om” – ya'ni, ajrashgandan keyin er to'laydigan aliment “Bounty” filmi nomi bilan so'z o'yiniga aylantirilgan.)

Bu ta'rif mashhur film nomi “Mutiny on the Bounty” (“Bounty” kemasidagi isyon”) bilan bog'liq so'z o'yinidir. Xuddi Armstrongning iborasi kabi, bu ham ingliz madaniyatida keng tanilgan pretsedentli matnga havola hisoblanadi.

Sintagmatik o'rin almashtirishning yana bir turi – xiazm. Yumor bu stilistik usulda ikki qarama-qarshi yoki bir-birini inkor etuvchi fikrlarning mavjudligidan iborat. Ikkinchi gap birinchi gapning o'rin almashtirilgan shakli (spunerizmga o'xshash) bo'ladi.

Misollar:

- When a man says he has exhausted life one always knows life has exhausted him. (Odam "Men hayotdan to'ydim" desa, aslida hayotning o'zi undan to'ygani ayon bo'ladi).

- I don't intend to be married until I'm 30. / I don't intend to be 30 until I'm married. (Men 30 yoshimga yetmagunimcha uylanmoqchi emasman. / Men esa uylanmagunimcha 30 yoshga yetmoqchi emasman).

- Sir, I admit your general rule That every poet is a fool. But you may aptly serve to show it. That every fool is not a poet. (Janob, sizning har bir shoir – ahmoq degan qoidingizni tan olaman. Ammo har bir ahmoq shoir emasligini isbotlovchi misol sifatida sizni keltirish mumkin).

Shunday qilib, yumor va yumoristik matn yuqorida ko'rsatilgan turli o'rin almashtirish strukturalari asosida quriladi. Bunda diqqat o'xshashlik va farqlanish munosabatlariga qaratiladi, chunki ular insonning idrok va anglash jarayonida asosiy rol o'ynaydi.

XULOSA

Yumor – bu inson tafakkurining murakkab, ko'p qatlamli hodisasi bo'lib, u **til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni** chuqur ifodalaydi. Kognitiv-semantik yondashuv nuqtai nazaridan, yumor tildagi **noaniqlik, ikki ma'nolilik va o'rin almashtirish** (transpozitsiya) kabi jarayonlar natijasida yuzaga keladi. Shu bois u nafaqat kulgi manbai, balki inson idroki va tafakkurining o'ziga xos "oynasi" sifatida ham muhim ilmiy tahlil obyekti hisoblanadi.

Tilning fonologik, morfologik va sintaktik darajalarida kuzatiladigan **so'z o'yinlari, metateza, spunerizm, xiazm va paradigmatic-sintagmatik o'rin almashishlar** yumor hosil qiluvchi asosiy lingvistik mexanizmlardir. Bularning barchasi inson ongidagi semantik tarmoqlanish, ya'ni bir belgining turlicha talqin qilinishi orqali yuzaga keladi.

Yumor tahlilida semiotik va kognitiv yondashuvlarning uyg'unligi uning **faqat til strukturasi bilan emas, balki madaniy, ijtimoiy va psixologik omillar** bilan ham bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Demak, yumor nafaqat so'z o'yini yoki ikki ma'nolilikning mahsuli, balki inson tafakkurining ijodiy qirrasini aks ettiruvchi ijtimoiy-madaniy fenomen hamdir.

Umuman olganda, yumorni lingvistik jihatdan o'rganish inson tafakkurining kognitiv mexanizmlarini ochishga, tilning semantik imkoniyatlarini aniqlashga va kommunikativ jarayondagi noaniqliklar qanday qilib kulgiga aylanishini tushunishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Минский М. Остроумие и логика когнитивного бессознательного // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1988. – С. 281–308.
2. Nash W. The Language of Humour. – New York: Longman Incorporated, 1985. – 177 p.
3. Hockett Ch. A Course in Modern Linguistics. – Toronto, 1969.

4. Vogel S. C. Humor: A Semiogenetic Approach. – Studienverlag Brockmeyer, 1989. – 302 p.
5. Milner G. B. Homo Ridens: Towards a Semiotic Theory of Humor and Laughter // Semiotica. – 1972. – Vol. 5.